

**YOSH PEDAGOGLARDA MULOQOT KO'NIKMALARINI  
RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI**

**Karimova Ra'no Ravshanovna**  
*Andijon viloyati Baliqchi tumani  
maktabgacha va maktab ta'limi  
bo'limiga qarashli 53-umumiy  
o'rta ta'lim maktabi amaliyotchi  
psixologi*

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada faoliyatini yangi boshlagan yosh pedagoglarda shaxslararo muloqotchanlikni shakllantirish va o'quvchilar bilan ishlash jarayonida qo'llanishi muhim bo'lgan muloqot turlari va ularni rivojlantirish ko'nikmasi haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar**

Yosh pedagog, shaxslararo muloqot, pedagogik muloqot, ko'nikma, ijtimoiy munosabatlar, psixologiya.

Har qanday davr, vaqt va jamiyatda insonlarning millat va xalq sifatida rivojlanishida albatta ta'lim-tarbiya, shaxslararo muloqot madaniyatining rivojlanishi muhim omil hisoblanadi. Barcha e'tibor va resurslar ta'limga qaratilgan hozirgi jamiyatda biz ham yashab faoliyat olib borayabmizmi demak, shaxs sifatida bu islohotlarga bee'tibor turishga qaysidir ma'noda haqqimiz yo'q. Millat kelajagi bo'lgan yoshlarni tarbiya qilishda albatta yosh pedagoglar ma'lum qiyinchiliklarga duch kelishi, ularda moslashish davri birmuncha qiyin kechishi mumkin. Huddi shu vaziyatlarda yosh pedagoglarga muloqotchanlik qobiliyati bo'lishi juda muhim.

Odatda o'zaro munosabatda bo'layotgan odamlar muloqot ishtirokchilari turli xil pozitsiyalardan kelib chiqqan holda o'zaro munosabatlarda bo'ladilar. Bu pozitsiyalar ko'p jihatdan muloqot ishtirokchilarining o'zaro holatiga, muloqot natijasiga ta'sir etadi va keyingi munosabatlar mazmunini ham belgilab beradi.

Insonlar o'zaro munosabatlarda qanday pozitsiyada turib muloqot o'rnatishlariga qarab psixologiyada 5 xil munosabat tiplari farqlanadi:

I. Raqobat usuli - muloqot jarayonidagi bir tomonning ikkinchi tomon ustidan hukmronligini namoyon qilgan holda muloqot vaziyatini boshqarishga va butun jarayonni o'z qo'lga olishga harakat qilishini anglatadi. Odatda, katta yoshlilar va kichiklar o'rtasida, rahbar va unga tobe xodim munosabatlarida shunday manzarani kuzatishimiz mumkin. Bunda birinchi tomon o'z ustunligidan foydalangani holda ikkinchisining ustidan o'z erkini namoyon etadi. Tabiiyki, muloqotdan muloqotga

tomon o'zini tobe deb his etayotgan odamda ichki noqulaylik va zo'riqishlar yig'ilib boradi. Bunday holatni psixologik til bilan ifodalanganda "yashirin nizo yig'ilib boradi" deyish mumkin. Bu esa o'zaro munosabatlarning keskinlashuvi va vaqti kelib kattaroq nizolarning paydo bo'lishiga olib keladi.

II. Yon berish - yuqorida aytilgan holatga o'xshashroq, biroq undan ko'ra farqliroq holat hisoblanadi. Bunda shaxs muloqot jarayonida yon berishga majbur emas, lekin u yon berishga burchliman deb hisoblaydi. Bunda kishi o'zidan yoshi, mansabi, mavqei jihatdan katta kishi oldida o'z manfaat va istaklarini to'la ifoda etolmay o'zini tobe his etadi. Agar yuqoridagi misolda tobelik o'zga kishi tazyiqi ostida vujudga kelsa, yon berish pozitsiyasida shaxs o'z ixtiyori bilan shu xil munosabat tarafdori bo'ladi. Lekin ma'lum vaqt va natijalardan so'ng unda ichki qoniqmaslik hislari paydo bo'la boshlaydi. Bunday qoniqmaslik hislari ortib borishi natijasida esa yon berayotgan kishisiga nisbatan ichki norozilik kelib chiqadi. Yon berish insonni passivlikka undaydi, uning ichki tashabbusini bo'g'ib qo'yadi va erkinligini cheklaydi. Ko'p jihatdan bu pozitsiya ham muqarrar nizolarga olib keladi.

III. Passivlik - biron masalani hal etish lozim bo'lgan vaziyatlardan shaxsning o'zini olib qochishi, turli bahonalar bilan qarorni orqaga surishini anglatadi. Ko'pincha bu xil harakat nizoli vaziyatlarni hal etish jarayonida namoyon bo'lishi mumkin. Aytish mumkinki, passivlik - nizodan qochish emas, balki masalani uzil-kesil hal etishdan qochishdir. Muammoni issig'ida hal qilish kerak, uni hal qilishni cho'zib yurish kerak emas. Chunki nizoni hal etishdan qochganimiz bilan nizo o'z-o'zidan hal bo'lib qolmaydi. Bu o'rinda o'quvchida "Kelishmasdan qolgan yoki orasida nizo paydo bo'lgan ikki kishi vaqt o'tishi bilan bir-birini kechirib ketishi ham mumkin-ku, buni qanday tushunish mumkin?" kabi e'tiroz tug'ilishi ham mumkin. Bu e'tiroz tashqi tomondan qaraganda tug'ri, lekin psixologik jihatdan taxlil qilinsa, atrofdagilar nazarida ular bir-birini kechirgandek ko'rinsalarda, aslida ma'lum muddatgacha bir-birlariga nisbatan ichki norozilik holatida qolaveradilar.

IV. Kompromiss - ya'ni kelishuvchanlik. Bahsli vaziyatlarda "Sen ham yutqizma, men ham yutqizmay" qabilida ish tutish, munozarali vaziyatdan ikkala tomon ham xafa bo'lmay chiqib ketish imkoniyatini izlashdan iborat bo'lgan holdir. Albatta, bu yuqorida sanab o'tilgan munosabat tiplarining orasida eng samaralisi hisoblanadi. Lekin bu xil munosabat vaziyatni aynan hozir hal etishga, "keyin nima bo'lsa bo'lar" qabilida ish tutishga qaratilgan bo'ladi. Bunda salbiy jihati shundaki, muammoni oxirigacha hal etilmasa, bora-bora baribir nizo kelib chiqishi mumkin.

V. Hamkorlik - bu holat muloqot jarayonda ishtirok etayotgan barcha ishtirokchilarning o'zaro manfaatlarini hisobga olgan holda muloqotda bo'lish va muammoli vaziyatni oxirigacha hal etishga intilishdir. Har qanday muloqot jarayonida hamkorlikka erishish uchun erishiladigan oxirgi natija ikkala tomonning xam manfaatlarining qondirilishi va ularning qiziqishlariga mos kelishi kerak. Oilaviy

munosabatlar, ishxonadagi vaziyatlar va turli hollardagi insoniy munosabatlarda bu usul juda ko‘p qo‘llaniladi.

Hayotiy vaziyatlarda faqat o‘zining manfaatining emas, balki boshqalarning ham manfaatini o‘ylash, boshqalarning manfaatlari xaqida ham qayg‘urish hamkorlik munosabatlarining garovi hisoblanadi. Zamonaviy psixologiya fanida hamkorlik munosabatlarini shakllantirishning qonuniyat va mexanizmlari yetarli darajada to‘la ishlab chiqilgan. Shu ma‘lumotlarga tayangan holda hozirgi paytda maxsus tashkil etiladigan trening mashg‘ulotlarida turli xil o‘yin va mashqlar yordamida odamlarga hamkorlik munosabatlarining amalga oshirilishi haqida ma‘lumotlar berish, insonning hamkorlik pozitsiyasida turib muloqotga kirishishi borasida ko‘nikma va malakalarni shakllantirish yo‘lga qo‘yilgan.

Shu o‘rinda aloxida ta‘kidlash lozimki, bu jarayonni tashkil kilish va olib borishda nafaqat trening o‘tkazish uslubi, balki trenerning shaxsiy pozitsiyasi ham yetakchi omillardan biri bo‘lib hisoblanadi. Ya‘ni bu xil munosabat uslubi trenerning e‘tiqodiga aylangan bo‘lishi va u har qadamda buni namoyon qilishi kerak.

Birinchi marotaba darsga kirganda, o‘quvchilar bilan muloqotda bo‘lganda “ijodiylik hissi” tug‘iladi. Darsni takrorlashda esa “ikkinchi ijodiylik hissi” namoyon bo‘ladi. Psixolog L.S. Vigotskiy san‘atning ijodiylik aktini o‘rgatish mumkin emasligi, ong orqali biz ongsizlik holatiga kirishimiz, ongli jarayonlarni tashkil qilishimiz, ular orqali ongsizlik jarayonlarini chaqirishimiz haqida fikrlar bildirgan. Tajribasi ortib borgani sari pedagog dastlabki materiallardan ko‘ngli to‘lmaydi, yangi-yangi materiallarni dars jarayonida qo‘llashga harakat qiladi. Buning uchun esa ijodiylik hissi shakllangan bo‘lishi lozim. Ijodiylik hissi bo‘lsa, pedagog izlanadi, imkon topadi. O‘zini darsga hissiy tayyorlash pedagogda ijodiylik tuyg‘usini keltirib chiqaradi. Ijodiylik hissili shakllantirishda quyidagilarga e‘tiborni qaratish lozim:

- material bilan ishlashda undagi asosiy o‘rinlarni qidirib topish;
- auditoriyaga murojaat qilish, ya‘ni muloqotda ijodiylikka e‘tibor berish;
- darsdan qoniqishni his qilish;

Pedagog o‘zida ijodiylik hissini shakllantirish va boshqarish uchun quyidagi autotreninglarni qo‘llashi mumkin:

-men tinch-xotirjamman; -men ishonch bilan dars o‘ta olaman; -bolalar meni tinglashadi; -men darsga yaxshi tayyorlanganman; -dars juda qiziqarli bo‘ladi; -bolalarning men bilan birga bo‘lishlari juda qiziqarli; -kayfiyatim yaxshi; -menga darsda ishlash yoqadi.

Biz ko‘z oldimizga birinchi darsni keltira olsak, o‘sha paytdagi hayajonni, quvonchni, ijodiylik hissini tuyamiz. Bolalar bilan bo‘lgan damlarimiz esda qolishi, xotiramizda undan iz qolishi, muloqot uslubiga bog‘liq. Pedagog kommunikativ muloqotining mahsuldor bo‘lishi uchun pedagogik ta‘sir kuchining tizimlarini, uning

har bir qismini bilishi zarur. Dars jarayonida o'qituvchi qaysi usulni qo'llayotganini doimo eslab turishi kerak.

Buning uchun pedagog ikkita muhim muammoni hisobga olishi: -o'zining xatti-harakatini to'g'ri tashkillashtirishi; -kommunikativ ta'sir samaradorligini ta'minlashi zarur.

Yosh pedagoglar endigina faoliyatini boshlaganda uchraydigan katta muammolardan biri bolalar bilan ota-ona o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tashkillashtirish uchun turli to'siqlar paydo bo'lishi. Jumladan, band bo'lish "to'sig'i"-ota-onalar doimo band bo'lishadi, bolaga e'tibor berolmaydilar, chunki ularning uy yumushlari ko'p. Bu bolada hissiy rivojlanishning to'xtashiga olib keladi. Ikkinchi to'siq - yoshga bog'liq bo'lib, bunda kattalarning yoshi ulug' bo'lgani uchun bolani tushunmaydilar. Bolaning ichki dunyosini hisobga ololmaydilar. Kattalar uchun arzimaydigan narsalar bola uchun muhim bo'lishi mumkin. Eski qolip "to'sig'i" - ota-onalar o'z bolasining yoshi ulg'ayib borayotganini sezishmaydi.

Farzand ulg'ayib borgan sari ota-onasining u bilan hisoblashishlarini istaydi. Shuning uchun ular o'rtasida tushunmovchiliklar, nizolar tug'iladi. Biz kattalar farzandlarimiz bizni doimo tinglashlarini xohlaymiz, bizga bo'ysunishlarini istaymiz. Ularning mustaqil fikrlarini eshitishga erinamiz. Demak, kattalar bolaga nisbatan eski qarashlarini yo'qotishlari lozim. Shunda o'rtadagi to'siq yo'qoladi. Biz ko'z oldimizga birinchi darsni keltira olsak, o'sha paytdagi hayajonni, quvonchni, ijodiylik hissini tuyamiz. Bolalar bilan bo'lgan damlarimiz esda qolsa, iz qolsa, demak, bu muloqot uslubiga bog'liq. Tarbiyachi kommunikativ muloqotini mahsuldor bo'lishi uchun u pedagogik ta'sir kuchining tizimlarini, uning har bir qismini bilishi zarur. Dars jarayonida tarbiyachi qaysi usulni qo'llayotganini doimo eslab turishi kerak. Buning uchun tarbiyachi ikkita muhim muammoni hisobga olishi: - o'zining hatti-harakatini to'g'ri tashkillashtirishi; - kommunikativ ta'sir samaradorligini ta'minlashi zarur.

Muloqot uslublariga quyidagilar kiradi:

1. Hamqorlikdagi ijodiy faoliyatga qiziqish asosidagi muloqot.
2. Do'stona munosabatlar asosidagi muloqot.
3. Masofadan turib muloqotga kirishish.
4. qo'rqitish(qo'rquv) asosidagi muloqot.
5. Yolg'on obro'-e'tibor qozonish uchun tashkil qilinadigan muloqot.

Birinchi uslub asosini tarbiyachining yuqori kasb etikasi tashkil etadi. Bu uslub haqida M.O.Knebel, I.P.Volkov, V.F. Shatalov kabilar o'z fikrlarini bildirganlar. Ularning fikricha, bolalar bilan bo'ladigan munosabat va pedagogik hissiyotlar mana shu uslub asosida shakllanadi. Ikkinchi uslub asosan do'stona munosabatlar, o'quv-tarbiyaviy faoliyatda shakllanadi. Do'stona munosabatlar muloqotning boshqarilishini ta'minlaydi. Maroqlilik bilan do'stona munosabat birgalikda rivojlanadi. Tarbiyachi bir tomondan bolalar uchun yaqin o'rtoq, ikkinchi tomondan birgalikdagi faoliyat

qatnashchisi bo'lishi lozim. Uchinchi uslub, ya'ni masofadan turib muloqotga kirishish muhim ahamiyatga ega. Tarbiyachi bilan bola o'rtasida ma'lum bir masofa bo'lishi kerak. Masofa juda uzoq bo'lmasligi lozim. Aks holda rasmiyatchilik kuchayib, ijodiylik muhiti shakllanmaydi. Tarbiyachi masofani saqlasa obro'-e'tibori ortadi. To'rtinchi uslub-qo'rqitish asosidagi muloqot bo'lib, bu uslub muloqotning negativ shaklidir. Ba'zi tarbiyachilar bolalarni qo'rqitish orqali muloqotda bo'ladilar. Chunki ularda pedagogik mahorat yaxshi shakllanmagan bo'ladi. Ayniqsa katta auditoriyada ma'ruza o'qiydigan ma'ruzachilar auditoriyani shu uslub asosida boshqaradilar. Juda qattiq turib, tinglovchilarni qo'rqitib pedagogik muloqotni muvaffaqiyatli amalga oshiraman deb hisoblovchilar yanglishadi. Bu o'zaro tushunishga to'sqinlik qiladi. Beshinchi uslub-yolg'on obro'-e'tibor qozonish uchun tashkil qilinadigan muloqot bo'lib, yosh tarbiyachilar malakasi yetarli bo'lmagani uchun yolg'on ishlatadilar. Bu bilan tarbiyachi bola bilan tezroq muloqotda bo'lib olishga harakat qiladi. Bunday usulni qo'llaydigan tarbiyachida umumiy pedagogik va kommunikativ madaniyat yetishmaydi. Demak, tarbiyachilarning fikricha, birinchi va ikkinchi uslub asosida muloqotga kirishishi yaxshi natijalarga olib keladi

Ba'zan biz birinchi marta muloqotda bo'lgan kishimizni kimlardir bergan bahosi, tavsifi asosida qabul qilamiz. Ya'ni oldindan olingan ko'rsatma asosida munosabatda bo'lamiz. Masalan, ayol kishi yangi jamoaga ishga kelsa, uning turmush o'rtog'idan ajraganligini eshitsak, unga boshqacha munosabatda bo'la boshlaymiz. Yoki falonchining xarakteri og'ir ekan, qo'rs ekan, yolg'onchi ekan deb eshitsak, unga nisbatan ehtiyotkorroq bo'lib muloqotda bo'lamiz. Bir marta yaxshilab suhbat qurganimizdan keyin esa fikrimiz o'zgarishi mumkin. Eng muhimi pedagog o'zining darsdagi hissiy munosabatlarini aniqlab olishidir. Ko'pgina pedagoglar ohangga, imo-ishora, yuz ifodasiga, badiiylikka ko'p e'tibor qaratsalar, ayrimlari faqat mantiqqa va isbot-dalillarga ahamiyat beradilar. Pedagoglarning fikricha, darsda o'quvchining o'quv materialini qanday idrok qilishi muhimdir. Shundagina unda ijodiylik tug'iladi.

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, ijodiylik hissini mustahkamlash uchun o'zining materialga nisbatan hissiy munosabatining tashqi ifodasini saqlay bilish kerak. Buning uchun esa oynaga qarab so'zlash, fikran dars jarayonini his qilish, misollarni ko'proq keltirish, buyuk shaxslar faoliyatidan aniq vaziyatlarni keltirish hamda darsga tezda moslashish katta ahamiyatga ega. Pedagog o'ziga darsga kirishdan avval ko'rsatma berishni o'rganishi lozim. Dars jarayonida va darsdan so'ng pedagog o'zini tahlil qilib borishi yaxshi natijalarga olib keladi. Shuningdek, pedagogik faoliyatda refleksiya jarayonini muntazam amalga oshirish o'qituvchining kasbiy rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. O'z faoliyatini tahlil qilish orqali pedagog o'zining kuchli va zaif tomonlarini aniqlaydi, mavjud kamchiliklarni bartaraf etish yo'llarini izlaydi hamda keyingi darslar uchun samarali strategiyalar ishlab chiqadi. Bu esa ta'lim jarayonining sifatini oshirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, pedagogning nutq madaniyati,

mimika va jestlardan o‘rinli foydalanishi ham shaxslararo muloqot samaradorligini oshiradi. O‘quvchilar bilan samimiy va ochiq munosabat o‘rnatish, ularning fikrlarini tinglash va qo‘llab-quvvatlash orqali ijobiy psixologik muhit shakllanadi. Natijada o‘quvchilarda darsga bo‘lgan qiziqish ortadi, ularning mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuv qobiliyatlari rivojlanadi. Zamonaviy ta‘lim sharoitida pedagogdan faqatgina bilim berish emas, balki o‘quvchilar bilan samarali muloqot o‘rnatish, ularni ruhlantirish va motivatsiya berish ham talab etiladi. Shu boisdan, pedagoglar o‘z kommunikativ kompetensiyalarini doimiy ravishda takomillashtirib borishlari zarur. Bu jarayonda turli treninglar, amaliy mashg‘ulotlar, psixologik metodlar va innovatsion texnologiyalardan foydalanish yuqori samaradorlikni ta‘minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, yosh pedagoglarda shaxslararo muloqotchanlikni shakllantirish ularning kasbiy muvaffaqiyati, pedagogik mahorati va ta‘lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR;**

1. E. G‘oziyev «Umumiy psixologiya Psixologiya» mutaxassisligi uchun darslik Toshkent- «Unversiteti»-2017 yil
2. E. G‘oziyev. Muomala psixologiyasi. Toshkent. 2001
3. M.G. Davletshin. Umumiy psixologiya. Toshkent. ToshDPU. 2002. (o‘quv qo‘llanma).
4. Filipp Zimbardo, Maykl Lyayppe. Sotsialnoe vliyanie.- SPb, 2000.-448 s.